

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruvining
2024-yil “27” may dagi
113 - sonli qaroriga

3- ILOVA

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2024-yil “6” avust da
81 - son bilan

“RO‘YXATGA OLINGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Kuzatuv kengashining
2024-yil “05” iyun dagi
14 - sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”



“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Dividend siyosati
(Yangi tahrirda)

“BIZNESNI RIVOJLANTRISH BANKI” ATB
ICHKI ME’YORIY HUJJAT

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Dividend siyosati

I. Umumiy qoidalar

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Dividend siyosati (keyingi o‘rinlarda – “Siyosat”) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi 5992-som “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3252-som bilan ro‘yxatga olingan “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizom hamda “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – “bank”) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Siyosat bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishida bank Kuzatuv kengashi (keyingi o‘rinlarda – “Kuzatuv kengashi”) tomonidan foydani taqsimlash, shu jumladan bank dividendlarini hisoblash, e’lon qilish tartibi, ularni to‘lash miqdori, shakllari va muddatlari haqida qaror qabul qilish uchun tavsiyalarni tayyorlash tartibini belgilaydi.

3. Kuzatuv kengashi bank aksiyadorlarining huquqlarini inobatga olgan holda ularning daromadlarini oshirish maqsadida, dividendlar to‘lash va bank ustav kapitalini oshirish to‘g‘risida tavsiyalar beradi.

4. Siyosat bankning 2020-2024-yillarga mo‘ljallangan “Rivojlanish strategiyasi”ning ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur Siyosat zarur hollarda Kuzatuv kengashining tavsiyasiga asosan o‘zgartirilishi mumkin.

5. Mazkur Siyosatda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

sof foyda – bu bank foydasidan buxgalteriya hisobining milliy standartlariga (BHMS) muvofiq ishlab chiqilgan moliyaviy hisobotlar ma’lumotlari asosida hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari to‘langanidan keyin bankning balansida qolgan foyda;

dividend – jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismi;

BXO – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ning bank xizmatlari ofis(lar)i;

BXM – “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning bank xizmatlari markaz(lar)i;

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi – depo hisobvaraqlari bo‘yicha emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni saqlashning, bunday qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olishning va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar harakatining yagona tizimini ta’minlovchi davlat depozitariysi.

II. Siyosatning maqsadlari


6. Bank tomonidan amalga oshiriladigan dividend siyosatining maqsadlari quyidagilardan iborat:

bank investorlarining bank aksiyalariga kiritilgan investitsiyalaridan daromad olish va bank aksiyadorlari moddiy farovonligini oshirish maqsadidagi manfaatlarini qondirish;

Markaziy bank talablari hamda bank ichki me’yoriy hujjalariiga muvofiq, aksiyadorlik kapitalining adekvatlik darajasini saqlab turish;

bankning kelgusi faoliyatini tegishli darajada moliyalashtirish bilan bir vaqtda uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash.

III. Siyosatning tamoyillari



7. Bank tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy faoliyat va Siyosatning asosiy mezonlari doimiy ravishda dividendlarni to'lab borilishini tashkil etadi. Mazkur Siyosat bankning kapitallashuv darajasining barqarorligini ta'minlashga va oshirishga, shuningdek bank aksiyalarining bozor narxlarini zarur darajada ushlab turishga yo'naltiriladi.

8. Siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

dividend to'lovleri miqdorini belgilashda bank va uning aksiyadorlari manfaatlari muvozanatini saqlash;

bankning investitsiyaviy jozibadorligini, moliyaviy barqarorligini, kapitallashuvini va likvidliligini oshirish;

kiritilgan kapitalning bozorda daromad keltirishini ta'minlash;

aksiyadorlar huquqlarini hurmat qilish va ularga qat'iy rivoja etish, ularning farovonligini oshirish.

9. Kuzatuv kengashi Siyosat strategiyasini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank kapitallashuvi darajasiga qo'yilayotgan talablarini inobatga oladi. Bu esa bankni boshqarish samaradorligining asosiy omili va ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuningdek, keljakda bank aksiyadorlari uchun daromadlarini shakllantirishning asosiy manbai va bankning bozor qiymatining asosiy o'chovi hisoblanadi.

10. Bank sof foydasining bir qismini, bank faoliyatini rivojlantirish uchun yetarlicha mablag' saqlab qolish imkoniyatini nazarda tutgan holda, dividendlar to'lashga yo'naltirishi mumkin.

11. Agar dividendlar to'lanishi oqibatida bankning moliyaviy faoliyatiga sezilarli darajada salbiy ta'sir o'tkazadigan bo'lsa, dividendlar to'lab berilmaydi. Mazkur Siyosatda nazarda tutilganchi hisobga olgan holda, bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq o'z majburiyatlarini bajarmagani uchun aksiyadorlari oldida javobgar bo'ladi.

IV. Dividend mablag'ları manbalari va miqdori

12. Dividendlar bank tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar bankning maxsus mo'ljallangan jamg'armalari hisobidan ham to'lanishi mumkin.

13. Soliqlar va boshqa barcha majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qolgan sof foya to'liq bank tasarrufiga o'tadi hamda bank aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishining qarori bilan bank zaxiralari va jamg'armalari to'ldirishga, bank aksiyadorlari o'rtaida dividendlar shaklida taqsimlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi muvofiq boshqa maqsadlar uchun ham sarflanadi.

14. Dividendlar har bir aksiya uchun pul qiymatida o'z aksini topadi. Bitta oddiy aksiyaga to'lanadigan dividend miqdori dividendning umumiyligi miqdorini qonunchilikka muvofiq dividend hisoblanishi mumkin bo'lgan bank aksiyalari soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

15. Bankning imtiyozli aksiyalari egalari bank foya ko'rish-ko'rmasligidan qat'iy nazar, bank Ustaviga muvofiq aksiyaning nominal qiymatiga nisbatan kamida 25 (yigirma besh) foiz miqdorida imtiyozli tarzda dividend olish huquqiga ega.

16. Bank aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishi qaroriga muvofiq bankning oddiy aksiyalari egalari hisobot davridagi bankning moliyaviy natijalari bo'yicha olingan sof foydaning kamida 30 (o'ttiz) foizini dividend tarzida olish huquqiga ega.

17. Kuzatuv kengashining Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga berilgan tavsiyalarida dividendlarni to‘lashga yo‘naltiriladigan foydaning umumiy miqdori, shuningdek, BHMSga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobot asosida belgilanadigan har bir turdagи bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan dividendlar miqdori o‘z aksini topishi kerak.

V. Dividendlarni to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilish tartibi

18. Dividendlar to‘lash har chorakda, yarim yillik, yillik tarzda har bir turdagи aksiya bo‘yicha uni to‘lash miqdori va shakli to‘g‘risidagi qaror bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi tomonidan Kuzatuv kengashining tavsiyalari asosida, haqqoniyligini tasdiqlovchi auditorlik xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma’lumotlariga muvofiq qabul qilinadi.

Dividendlar miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya qilingan miqdordan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi ma’lum bir turdagи aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lamaslik to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

19. Dividendlarni to‘lash to‘g‘risidagi qarorda dividendlarni to‘lashning boshlanish va yakunlanish sanalari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Har choraklik, yarim yillik va yillik dividendlarni to‘lash to‘g‘risidagi qaror tegishli davr tugaganidan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin. Dividendlarni to‘lash muddati bu haqida qaror qabul qilingan sanadan boshlab 60 kundan kechikmasligi lozim.

20. Quyidagilar bank aksiyadorlariga dividend to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishning asosiy shartlari hisoblanadi:

dividend to‘lash nazarda tutilayotgan davr yakuni bo‘yicha bankda sof foydaning mavjud bo‘lishi;

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq dividendlar to‘lashga cheklovlarining mavjud bo‘imasligi.

21. Bank topshirig‘iga asosan Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishida qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxati shakllantiriladi.

22. Kuzatuv kengashi sof foydani taqsimlash bo‘yicha bank Boshqaruvi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar va takliflarni ko‘rib chiqadi, zaruriyatga qarab sof foydani taqsimlashga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritadi hamda qonunchilik va mazkur Siyosat talablari asosida bank aksiyalari bo‘yicha dividendlar miqdori va ularni to‘lash tartibi to‘g‘risida tavsiyalarni o‘z ichiga olgan yakuniy qarorni qabul qiladi.

VI. Dividendlarni to‘lash tartibi

23. Joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar har chorakda, yarim yilda yoki yilda bir marta to‘lanishi mumkin.

24. Bank aksiyalari bo‘yicha dividendlar bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining qarori asosida pul mablag‘lari shaklida, bank aksiyalari ko‘rinishida yoki boshqa qonuniy vositalarda to‘lanishi mumkin.

25. Bankning imtiyozli aksiyalari bo‘yicha dividendlarni qimmatli qog‘ozlar bilan to‘lashga yo‘l qo‘yilmaydi.

26. Aksiya uchun mablag‘ qaysi valyuta birligida to‘langanidan qat’iy nazar, dividendlar bo‘yicha to‘lovlardan O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida amalga oshiriladi.

Bank O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko'ra, unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag'larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobvarag'iga o'tkazib berishi mumkin.

27. Dividendlar to'lash vaqtida, birinchi navbatda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha bank qat'iy belgilangan dividendlarni to'lash uchun foydaga ega bo'lmasa yoki moliyaviy yil yakuni bo'yicha zarar ko'rilgan bo'lsa, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira jamg'armasi hisobidan va shu jamg'arma doirasida to'lanishi mumkin.

28. Aksiyalarning barcha turlari bo'yicha dividendlar hisob-kitobi bankning G'aznachilik departamenti va bankka xizmat ko'rsatuvchi depozitariy tomonidan tayyorlanadi. Bosh bankning G'aznachilik departamentining dividendlar taqsimotiga ko'ra, dividend to'lovlarini bank hududiy tarmoqlari tomonidan amalga oshirilishini nazorat qiladi.

29. Dividend to'lash bo'yicha qaror qabul qilingandan so'ng, dividendlar bank aksiyadorlari reyestrida qayd etilgan hisobraqamga to'lab beriladi. Aksiyadorning bank rekvizitlari bo'yicha to'liq ma'lumoti yetarli bo'lmagan holda hamda aksiyador tomonidan boshqa topshiriq berilmagan bo'lsa yoki boshqa holatlarda (aksiyador yuridik shaxsning faoliyatini tugatilishi, qayta tashkil etilishi, hisobraqamini boshqa bankka o'tkazilishi hamda aksiyador jismoniy shaxsning vafot etishi, bedarak yo'qolishi va bank bilan aloqani uzilishi kabi holatlar) dividendlar "Harakatsiz depozit majburiyatları" hisobvarag'iga o'tkaziladi.

30. Aksiyalar bo'yicha obuna davom etayotgan holda aksiyadorlar arizasiga muvofiq ularga tegishli bo'lgan dividendlar bank aksiyalarini sotib olish uchun o'tkazilishi mumkin.

31. Aksiyalar egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qaroriga ko'ra bank ixtiyorida qoladi.


32. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tugatilishi, qayta tashkil qilinishi yoki ularning hisobraqamlarini yopilishi, ularni aksiyadorlar safidan chiqarish uchun asos bo'la olmaydi.

33. Dividendlar aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda bankning aybi bilan to'lanmagan (olinmagan) taqdirda, to'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi. To'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha hisoblanadigan penyalar miqdori to'lanmagan (olinmagan) dividendlar miqdorining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

34. Aksiyador o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi depozitariyni o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilishi shart. Aksiyador o'ziga oid ma'lumotlar o'zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, buning oqibatida aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va aksiyadorning o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi depozitariy javobgar bo'lmaydi.

35. Aksiyador o'ziga oid ma'lumotlar o'zgarganligi haqidagi axborot (bank rekvizitlari, manzili)ni noto'g'ri taqdim etganda yoki o'z vaqtida taqdim etmaganda, aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun bank javobgar bo'lmaydi. Ushbu bandda ko'rsatib o'tilgan sabablarga ko'ra, aksiyador aybi bilan bank tomonidan noto'g'ri o'tkazilgan dividendlar aniqlangan rekvizitlarga o'tkazib beriladi va ushbu amaliyot bilan bog'liq xarajatlar hisoblangan dividend summasidan ushlab qolinadi.

VII. Dividendlar to'lab berilishi mumkin bo'lgan aksiyalar



36. Aksiyadorlarga dividendlarni to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishini o‘tkazish uchun shakllantirilgan bank aksiyadorlarining reyestrida qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo‘yicha dividend olish huquqiga ega.

Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan bank aksiyadorlarining reyestrida qayd etilgan aksiyadorlar ega bo‘ladi.

VIII. Dividendlarni to‘lashga doir cheklovlar

37. Quyidagi hollarda bank aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash (e’lon qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli emas:

bank ustav fondi (ustav kapitali)ning hammasi uning ta’sis etilishi chog‘ida to‘liq to‘lab bo‘linguniga qadar;

dividendlar to‘lanadigan paytda bankda bankrotlik belgilari mavjud bo‘lsa yoki dividendlar to‘lash natijasida bankda shunday belgilar paydo bo‘lsa;

bank so‘f aktivlarining qiymati uning ustav fondi (ustav kapitali) va zaxira jamg‘armalari qiymatidan kam bo‘lgan hollarda;

aksiyadorlardan qayta sotib olinadigan aksiyalar (bank egalik qilayotgan o‘z aksiyalari) to‘liq qayta sotilgunga qadar;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan dividendlar to‘lanishiga oid cheklovlariga rioya etilmagan hollarda;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan boshqa hollarda.

Mazkur bandda keltirilgan holatlar tugatilganda bank aksiyadorlariga hisoblangan dividendlarni to‘lashi shart.

IX. Dividendlarni soliqqa tortish

38. Bank dividendlar miqdorini aksiyadorlardan olinadigan soliqni hisobga olmasdan e’lon qiladi. Aksiyadorlarga tegishli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lashda bank soliq agenti vazifasini bajaradi.

39. Bank qonunchilikda ko‘rsatilgan tartib va muddatlarda dividendlardan soliplarni hisoblash, ushlab qolish va byudjetga o‘tkazib berishni amalga oshiradi.

X. Aksiyadorlarni Siyosatdan xabardor qilish

40. Bank mazkur Siyosatni, shuningdek, unga kiritilgan o‘zgartirishlarni bankning rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

41. Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi qaroriga muvofiq hisoblangan dividendlar miqdori, ularni to‘lash muddatlari, usullari va tartiblari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bank tomonidan “Toshkent” Respublika fond birjasining rasmiy veb saytida (www.uzse.uz), Korporativ axborotlar yagona portalida (openinfo.uz) hamda “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat bankining rasmiy veb saytida (www.brbb.uz) qonunchilikda belgilangan tartibda oshkor qilinadi.

42. Bank aksiyadori o‘z aksiyalari bo‘yicha hisoblangan hamda to‘langan dividendlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish uchun bankka yozma ravishda murojaat qilishga haqli.

XI. Yakuniy qoidalar

43. Mazkur Siyosat bilan belgilangan tartib-qoidalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari talablariga zid kelgan hollarda O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga rioya etiladi.

44. Bank xodimlari ushbu Siyosat bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka, jumladan:

korruption harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzallikkarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

huquqbazarlik, jinoyat yoki manfaatlар to'qnashuvи alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda bank rahbariyatiga xabar beradi.

45. Mazkur Siyosat ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

46. Aksiyador bank tomonidan hisoblangan dividendlar va penyalar to'lanishini sud tartibida talab qilishga haqli.

47. Mazkur hujjat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan amalga kiritiladi hamda shu kundan e'tiboran Kuzatuv kengashining 2022-yil 27-dekabrdagi 20-sonli qarori bilan tasdiqlangan ATB "Qishloq qurilish bank"ning Dividend siyosati (Yangi tahrir) (ro'yxat raqami 442-sun) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

Kiritildi:

G'aznachilik departamenti direktori

A.Salixov

Kelishildi:

Komplayens nazorat departamenti direktori

J.Yusupov

Risk menejment departamenti direktori birinchi o'rnbosari

K.Karimov

Lingvist

A.Ravshanov

Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi boshlig'i

S.Raxmatullayev

2024-yil 16-aprel

Toshkent sh.

YURIDIK XULOSA № 46

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB G‘aznachilik departamenti tomonidan ishlab chiqilgan “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATBning Dividend siyosati (**Yangi tahrirda**) loyihasi Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Mazkur ichki me’yoriy hujjat Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-slon bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo‘limi “Tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o‘zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan bo‘lib, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqlikdir.

Shuningdek, hujjat loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o‘tkazilib, unda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar aniqlanmadı.

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig‘i

S.Raxmatullayev

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot xizmati
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
Xulosasi**

2024-yil 29-aprel

Toshkent shahri

154 -son

1. Ichki me’yoriy hujjat - **Siyosat**
loyihasining turi:

2. Ichki me’yoriy hujjat “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATBning
loyihasining nomi: **Dividend siyosati**

3. Lingvistik ekspertizani - **A.Ravshanov**
o’tkazuvchi:

4. Lingvistik ekspertiza - **2024-yil 29-aprel**
o’tkazilgan sana:

5. Loyiha O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi
662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini lingvistik
ekspertizadan o’tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo‘nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubiy, grammatick va
orfografiya qoidalariga mos, shuningdek, soha atamalari to‘g‘ri qo‘llanilgan.

Ekspert:


(imzo)

A. Ravshanov